

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRINING
BUYRUG'I**

**SHNQ 1.03.01-16 "KORXONA, BINO VA INSHOOTLARNI KAPITAL QURILISHI
LOYIHA-SMETA HUJJATLARINING TARKIBI, ISHLAB CHIQILISHI,
MA'QULLANISHI VA TASDIQLANISHI TARTIBI" SHAHARSOZLIK NORMALARI VA
QOIDALARIGA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TO'G'RISIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 29-sentabrda hisobga olindi,
hisob raqami 114]**

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik **kodeksi** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagи PQ-346-son "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish va boshqaruvchi tashkilotlarni moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi **qaroriga** muvofiq buyuraman:

1. ShNQ 1.03.01-16 "Korxona, bino va inshootlarni kapital qurilishi loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqilishi, kelishilishi va tasdiqlanishi tartibi" shaharsozlik normalari va qoidalarining 4-ilovasi "Umumiy tushuntirish matni" paragrafi quyidagi mazmundagi o'n ikkinchi va o'n uchinchi xatbosilar bilan to'ldirilsin:

"ko'p kvartirali uylardagi turarjoylar va yashash uchun mo'ljallanmagan (noturar) joylar, umumiyl mol-mulk (umumiyl joylar) ro'yxati;

har bir ko'p kvartirali uy joylashgan va unga tutash yer uchastkasi (rejası, joylashgan obyektlar, shu jumladan loyihada nazarda tutilgan avtoturargohlar, bolalar va sport maydonchalari, dam olish maskanları, sayilgohlar, yo'laklar va ko'p kvartirali uyg'a xizmat ko'rsatuvchi boshqa obyektlar) maydoni hamda chegaralari to'g'risidagi ma'lumotlar."

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq 2022-yil 1-noyabrdan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir B. ZAKIROV

Toshkent sh.,
2022-yil 15-sentabr,
161-ton
Kelishildi:

Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktori F. PULATOV

2022-yil 14-sentabr

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vaziri Sh. XIDOVATOV

2022-yil 12-sentabr